



## Araştırma Makalesi • Research Article

### Germenevtika İlimining Kelib Chiqishi va Rivojlanishi

#### *Hermeneutiğin Ortaya Çıkışı ve Gelişimi*

#### *The Emergence and Development of Hermeneutics*

Kasım Müminoğlu<sup>a,\*</sup>

<sup>a</sup> Dr. Öğr. Üyesi, Muş Alparslan Üniversitesi, Fen Edebiyat Fakültesi, Felsefe Bölümü, 49100, Muş/Türkiye.  
ORCID: 0000-0001-6649-4144

#### MAKALE BİLGİSİ

##### *Makale Geçmişi:*

Başvuru tarihi: 21 Eylül 2017  
Düzeltilme tarihi: 18 Nisan 2018  
Kabul tarihi: 26 Nisan 2018

##### Anahtar Kelimeler:

Hermeneutik  
Yorumlama  
Schleiermacher  
Dilthey  
Heidegger

#### ARTICLE INFO

##### *Article history:*

Received 21 September 2017  
Received in revised form 18 April 2018  
Accepted 26 April 2018

##### Keywords:

Hermeneutics  
Interpretation  
Schleiermacher  
Dilthey  
Heidegger

#### ÖZ

Bu makale, hermeneutik biliminin Antik Yunandan günümüze kadar kullanıla gelmiş anlamları üzerinde araştırma yapmayı amaçlamaktadır. İlk “*hermeneuein*” kavramının etimolojik anlamı üzerindeki araştırmalar tetkik edilerek gelişimi üzerinde durulacak. Sonra ise “*Hermeneutiğin*” bir bilim olarak gelişimini ortaya koyarken romantik hermeneutikçiler Schleiermacher, Dilthey, felsefi hermeneutikçiler Husserl, Heidegger, Gadamer, yeni romantikler Betti, Hirsch ve eleştirel hermeneutikçiler Habermas ve Apel gibi düşünürlerin hermeneutiğe katkılarını sistematik bir şekilde incelemeyi ve irdelemeyi hedefliyoruz.

#### ABSTRACT

The purpose of this article is to study the importance of the science of hermeneutics as a term (*hermeneuein*) starting from Ancient Greece to the present day. At the first stage, we try to study the etymological meaning of the word “*hermeneuein*”. At the second stage we will investigate the process of the development of the science of hermeneutics. At the same time, we intend to study and analyze systematically, the views of romantic hermeneutics like Schleiermacher, Dilthey, philosophical hermeneutics like Husserl, Heidegger, Gadamer, new romantics like Betty, Hirsch and representatives of critical hermeneutics like Habermas and Apel.

#### O‘z

*Bu maqola, germenevtika (hermeneutik) ilmining antik Greklardan xozirgi kungacha qo‘llanilip kelgan manolari bo‘yicha fikir bayon qilishni rejalashtirmoqda. İlk o‘laroq “hermeneutik” so‘zining etimologiyalik ma‘nosining taxqiqi va germenevtika nazariyasining rivojlanishi to‘g‘risidaki ilmiy mulohazalar amalga oshiriladi. Bu borada romantik germenevtikchilari bo‘lgan Schleiermacher, Dilthey, falsafiy germenevtikchilar, Husserl, Heidegger, Gadamer,*

*yangi romantikchilar Betti, Hirsh va tanqidchi germenevtikchilar bo‘lgan Habermas va Apel kabi mutafakkirlarning germenevtika ilmi asosidagi ko‘z qarashlari sistematik bir ravishda taxqiq va taqdim qilinishi nazarda tutulmoqda.*

**Kalit So‘z:** *Germenevtika, Sharxlamoq, Schleiermacher, Dilthey, Heidegger.*

\* Sorumlu yazar/Corresponding author.  
e-posta: [k.mominov@alparslan.edu.tr](mailto:k.mominov@alparslan.edu.tr)

## 1. Kirish

Sharxlash, bilish va tushunish kabi aql faoliyatlarini o'zaro bir birlaridan ajratish mumkin bo'lmagani kabi bunday ajratishning imkoniyati muloxaza qilinishi mumkin. Qadr-qiyamatlar yoki me'yorlar olaminining quruvchisi insondir deya o'z tushunchalarini Nietzsche "*Xech bir axloqiy haqiqat yoq, faqat axloq sharxlar bordur*" shaklida deb aytgandir. "*Bashar olaminining so'z ila qurilib, so'z ila yiqilgan ekanligini*" ifoda qilgan Mavlono Jaloliddin Rumi sakkiz asr muqaddam aniqlagan bo'lib bu bashariy aloqalarning til vositasi bilan mumkin ekanligini bildirgan. Xulosa qilib aytish kerak bo'lsa, falsafa, axloq, din, xuquq, sotsiologiya, siyosat, iqtisot, adabiyot, sanat va boshka bashariy bilim soxalariga tegishli masalalarni xam siniflantiruv uchun sharxlash kerakli bo'lgan muxim ishtir. Germenevtika tushunchasini asosan o'zbek tilida ifoda qiladigon bo'lsak, so'z va jummalarni insho qilish yoki, boshqacha qilib aytganda insonning dunyo bilan bo'lgan munosabatlarini muzokara qilish va baxolash harakati deb xisoplash mumkin. Antik Greklardan kunimizgacha so'z sanati mi, yoki yozuv sanati mi, kerakli degan ilmi muloxazalar bu masalaning jiddiyatini ortaga qo'ymoqta. Yer yuzudaki butkul madaniyat ve odatlar o'z meroslarini yozuv va yozilgan matnlar atrofida shakillantirgan. Germenevtika, yoki so'z sanati borasida toxtalagan problemalar yozuvning o'zi qadar eski bo'lishi bilan birga, ko'proq matnlarni anglash bilan cheklangan bir harakat bolip qaralgan. Tushunmoq yoki sharxlamoq problemalari an'anaviy falsafada mantiq yoki epistomologiyaning masalasi bo'lip kelgan. Bu maqolada, germenevtika ilmining kelib chiqishi va rivojlanishi sarlovxasi ostida, falsafa, ilohiyat, tarix tadqiqotlari va adabiyot tanqidlari soxalarida keng ravishda ishlatilgan va tabora axammiyat qozongan masalalar haqida tadqiqotlar taqdim etiladi. Chunki germenevtika ilmi oldin faqatgina ilohiyat soxasida ishlatilgan bo'lsa xozirgi kunda butun ilimlarda ishlatilib kelmoqda va axammiyati shunchalik kerakli ki bu ilim soyasida nafaqat iki insonning bir biri bilan bo'lgan munosabati xatto butun bilimlar orasida yotgan problemalarni yechish mumkin ekanligi ortiq bilingan bir haqiqat. Ga'rbta 20-chi asrda bu ilimga Schleiermacher'in asos solishi va keyinchalik bo'lsa, Dilthey, Gadamer, Habermas va Apel bilan birga butun bilimlardagi anlashilmovchilik problemalarini germenevtik mulaxaza bilan yechish o'z tasirini ko'rsatdi. Turkiya'da bo'lsa Doğan Özlem va Osman Bilen'ing bu soxada xissalari juda katta ahammiyat kasb etadi (Özlem, 1995, 1996; Bilen, 2007).

## 2. Antik Grek Davrida "Germenevtika" So'zining Ma'nosi va Funksiyasi

Germenevtika (hermeneutik) konsepsiyasi Grekcha fe'l bo'lgan odatda "*sharxlamoq*" deb tarjima etilgan "*hermeneuein*" so'zidan va isim xolatida "*sharx*" ma'nosidagi "*hermeneia*" so'zidan kelip chiqmoqda (Palmer, 2008: 39). Asosan Aristotelning mantiqqa tegishli asarlari orasida joy olgan "*Peri hermeneias*" risolasining ona mavzusu sifatida o'z yerini olmoqda. Al-Forobiy'ning "*Bari Eriminyas*" nomi bilan bilingan bu risola, uning mantiq kitoplarida "*el-İbare*" nomi bilan atala boshlagan. Al-Farobiy'ning sharx qilib ishlatgan bu so'z o'z ma'nosini zamonaviy falsafada germenevtika o'laroq ishlatila boshlanishi bilan yo'qotgan. Aristotel bu so'zni "*aytmoq, tilga keltirmoq, ifoda etmoq,*" ma'nolarga kelgan

"*hermeneia*" so'zini "*bir narsa haqidagi to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lgan ifodalarning*" inson aqlida to'g'ridan amalga oshgan fe'l deb hisoplaydi. Aristotel bu borada aql fe'llarini uch qisimga ajratip qaragan. A) Yolg'iz narsalarni tushunmoq yoki ma'no qaliplari sifatida bu so'zlarning qast qilgan narsani tushunmoq. Abu Ali İbn Sino'da bu tasavvur deb atagan aql jarayonidir. B) Tarkib va Tasnif jarayoni yana bu İbni Sino'da tasdiq bilan aloqali bo'lgan aql faoliyatidir. C) Bilingandan bilinmagani chiqarmoq, aql ishlatmoq, qiyos. Aristotel ma'no bildirgan ifodalarni (jummalarni) to'g'ri yo ki noto'g'ri ekanligi ispotlanishi mumkin bo'lgan ifodalarni hermeneias'ning masalasi qilib hesoblagan. Duo, amir, savol, nido kabi tilak bildirgan ifodalarni jumla sifatida ko'rmaydi (Bilen, 2007: 26).

Germenevtika (hermenias) so'zi bu falsafi ma'nosi bilan birga, ildizlari Grek mifalogiyasida Tangrilardan xabar olip kelgan xabarchi-Tangri Germes bilan yaqindan aloqalidir. Bu ma'noda olip qaralganda Germes insonlar bilan Tangrilar orasida elchi sifatida, Tangrilarning xabarlarini insonlarga tarjuma qiluvchi zottir. Bundan tufayli ki Germes, anlashilmagan narsani insonning tushunabilajagi so'z qalibiga keltirgani uchun, mifologiyada til va yozuvning ijotkori Germes'ga taalluqtir (Özlem, 1995: 12). Martin Heidegger'da bu borada ochiq bir xolatda falsafi germenevtikani Germes bilan bog'lamoqda. Heidegger'ga ko'ra Germes "*qadarning*" xabarini keltirmoqda; hermeneuein bo'lsa xabar yuklangan bir narsani, xabarning o'niga qo'yilabilgan darajada sharxlamoqtir. Bunday bir sharxlov ayni zamonda shoirlar tomonidan yozilgan yo ki so'ylangan narsani ochiklamoqtir. Sokratga ko'ra Platonning dialog "*Ion*" da bu shunday tilga keltirilmoqda; "*Ular Tangrilarning Ichilaridir*" (Palmer, 2008: 40). Bu jihattan olip qaralganda sharxlamoq ma'nosini bergan germenevtikaning klassik qollanishi, modern muzokaralarning tarkibini xam tayin qilgani uch asosi elementni belgilamoq mumkin. 1. So'z o'laroq so'ylamoq, 2. İzoxga keltirish, 2. Tarjima qilmoq (Bilen, 2007: 29). Bilen'ning bu uch xil ko'rishlari, asosan taxqiq qilib qaralganda Palmer'ning "*Hermeneutik*" nomli asarida qo'lga olgan germenevtikaning olti zamonavi izohini xam oz tushunchasiga kiritmoqda. Bu masala zamonaviy germenevtikchilar tomoni-dan metodikalik izohatlarni sistematiklashtirilishi nazariyasi tufayli yana xam qo'llanishli xolatga keltirilgan. Bu esa kunimizda mukkaddas kitoplarning, yoki tarihiy matnlarni xozirgi kunga moslashtirgan ravishda oqtaruv protsedurasini osonlashtirmoqda. Asosan bo'lsa hozirgi kunda xar turli anglashmovchiliklarning yuzaga kelayotgan payitida bu kabi ilmi muloxazalarga extiyoj tobora ortip borishi turgan gap. G'arb bu problemaga Uyg'onish (Ronesans) davrida to'xtaldi va o'zaro anglashmovchilik masalalarini ushbu ilim yordamida amalga oshirgani bilingan bir haqiqat. Keling bolmasam bu misolga oz bo'lsa xam bir nazar tashlaylik.

## 3. O'rta Asrlarda "Germenevtika" Ilimining Axamiyati

Antik Grek dunyosida o'zini en oldingi masalalarni yechish uchun ishlatilgan alegorik sharxlov metodu, Xristiyanlikning reform davrida diniy matnlarning, dastlab "*Injil*" ning tafsiri uchun ishlatilgan metodlardan bo'lgan. Alegorik bir izohning extiyoj xoliga kelishining asos sababi matnning so'z ma'nosidan tashqari asosan mistik bir ma'no, yana da

chuqur bir “*xaqiqat*” tushunchasi tashkil qilganligi uchundur (Toprak, 2003: 27). Bu davrda Xristiyan hermenevtikasining asoschilari Martin Luther, Philo, Origenes, J. Cassinus kabi teologlar diqqatga sazovordur. (Özlem, 2004: 34, 35). Bular asosan Injil’da bildirilgan voqealarning ma’nolandiirilishi va sharxlanishi kerakligining axamiyati ustida turganlar. Asosan Origenes’ga kora muqaddas kitoplarda anglatilgan xikoyalarda faqatgina tarihiy voqealar tarihnining problemalarini emas ayni vaqitni o’zida ma’no faoliyatining masalalari bolip xesoblanadi. Bu tomondan olip qaralganda Origenes’nin metodi o’z zamonasida yozuvchilarga bir yozuvning to’rt ma’nosini ortaga chiqarish metodini ham orgatishi borasida oydinlatguvchi ro’l o’ynagan. Bu davrda qutsol matnlarda so’z ma’nosi, alegorik ma’no, axloqiy ma’no va yuksak (analogiyalik) ma’no axtarila boshlangan (Toprak, 2003: 29).

Bir sharxlov quroli tizmasi o’laroq hermenevtika va bu sharxlamaning amaliy faoliyati bo’lgan tafsirning bir birlaridan ajralganligini J. C. Dannhauer’ning 1654 “*Hermeneutica Sacra Sive Methodus Exponendarum Sacrarum Litterarum*” nomli kitobida joy olganligini korishimiz mumkin. Bu kitobning bosh qismida hermenevtikaning sharxlov metodika o’laroq exegesis (tafsir) dan ajralganini anglash mumkin. Bu tomondan olip qaralganda ana shu asrlarda hermenevtika Cherkov xokimiyatining qo’lida bo’lganini xam fikirlash mumkin. Bundan boshka bu borada Johann August Ernesti’ning asarlarida toxtalip otgan fikirlarga qarash mumkin. Keyinchalik bo’lsa Martin Luther’in reform harakatlari bilan birga Katoliklarga qarshi turush, kuchayish soyasida qutsol matnlarning dogmatik bir ravishda sharxlash kabi alegorik metodu bir tomonga tashlanip Xristiyan camoasida problemalarga to’g’ridan yo’nalgan, har turli kayfi, shahsiy izohlardan tozalangan va problemalarga ongli turda yaqinlashmoq tushunchasi joylasha boshlaganligini aytip otishimiz mumkin (Gadamer, 1981: 15, 17) O’rta asr Xristiyan olamidagi bu qidiruvlar Ronesans va ma’rifat davriga olip chqqan. Xatto man, bu qidiruvlarning G’arb olamidagi siyosiy, ijtimoi va turmush jixatlaridan xam bir kancha o’rtoq masalalarini chechabiluv metodikalariga olip borganligini aytishim mumkin. Bu masalaga boshqa bir maqolada toxtalip otmoqchiman. Shuni qisqa qilip aytishim mumkin ki, bunday bir mashaqqatli va samarali bir davrda Fredrich Ast va Cristiyon Wolf kabi fikir insonlarining hermenevtikaga qarata yurutgan nazaryalari, Friedrich. D. E. Schleiermacher gacha bo’lgan universal hermenevtikaning rivojlanishi uchun katta axammiyat tashkil etkanligini aytip o’tishimiz mumkin.

#### 4. Ronesans So’ngrasi “*Germenevtika*” Ilmidagi Tarihiy O’zgarishlar: Fredrich Ast va Cristiyon Wolf

Öztürk’ning bayon qilip aytgani kabi, Friedrich Ast hermenevtikada “*ruh*” butunligi g’oyasining ishlap chiqishlik kerak degan fikirni ilgari surmoqdadir. Ast’ga ko’ra “*germenevtika*” matning “*geistige*” (ruhsal, ma’naviy) ma’nosini oydinlikka olip chiqarish teoriyasi bolib xisoblanadi. Shuning uchun hermenevtikaning maqsadi bir asarning o’z ich ma’nosidagi rivojlanishlari va bu asarning elementlarining o’z davri yo ki matnning o’qilayotgan davrining manaviyoti bilan bo’lgan aloqalarini izoh qilmoqdir. Bu maqsad Ast tomonidan uchta tuhsinish

formasiga ajratilmoqda. A) “*Tarihiy*” asarning san’at, bilim va ommaviy bo’g’lari bilan birga tushunmoq. B) “*Gramer*”, til va aloqador bir ravishda tushunmoq, C) “*Geistige*” asarning o’z davrining manaviyoti ramkasida tushunmoq (Öztürk, 2009: 152). Ast’ning hermenevtika ilmi asosida yurutgan fikir muloxazalari orasida eng muxim original tomoni, tuhsunma jarayonini “*qayta ishlab chiqarmoq*” fikri deb xesoplasak boladi. Ast’ning bu fikirlari xususan uchunchisi, Schleiermacher ve 19. Asrning buyuk falsafachilaridan bo’lgan Böckh tomonidan yana ham tarang-lashtirilgan (Palmer, 2008: 114).

Christian Wolf’ning hermenevtika haqidagi tushunchasi Ast’ning metodikasidan farqli o’laroq, ko’proq amaliy yoni bilan aloqali. Wolf hermenevtikani “*Vorlesung über die Enzyklopadie der Altertums-wissenschaft*” nomli maqolasida, “*ishoratlarning ma’nolarining bilinmog’ini saqlaguvchi qurollar bilimi*” deb qaraydi. Wolf’ga ko’ra hermenevtikaning maqsadi “*bir yozuvchining yozilgan yo ki aytgan tushunchalarini, aftorning bayon qilishni hohlagan tushunchani o’zini qo’lga kirituv*” deb hisoplaydi. Faqat bu borada shuni aytip otish kerakidir ki, Wolf’ning masalaga bo’lgan nazariyasi bilan Ast’ing nazariyasi orasida farq bordir. Ast’ga ko’ra ifoda qilish, anglamoq masalaning ichkarisiga joylashtirilib, anglamoq ifoda qilishdan ajratilishi kerak bo’lgan masaladir (Palmer, 2008: 118, 119). Bir shakilning ma’nosi, to’g’ridan anglamoq ostida qolga kiritiladi. Qisqacha qilip aytganda, bizlar bir narsa ustida tushunchamizi o’zimiz tushunup anglaymiz. Wolf’ga ko’ra esa bizlar boshqalariga izoh qilamiz. Bu yerda sharxlovning asosi falsafiy darajasi bo’lsa, oldingi ikki darajaning kontrol va taftish qiluvdan iborat. Wolf’nin hermenevtikaga solgan asoslari universal (olamiy, umumiy) hermenevtikalik tushunchaning rivojlanishida o’z hissasini kiritgan. Ast va Wolf’dan so’nra Schleiermacher yoki Dilthey kabi faylasuflarning ijodlari romantik hermenevtikaning o’nip o’sishiga xizmat qildi.

#### 5. Hermenevtika Ilmining Rivojlanishida Romantik Asoschilar Schleiermacher va Dilthey

Schleiermacher, matnlarni tushunmoq, anglamoq uchun tarix bilan aqlni qarshiqarshiga keltirgan problemalarni bartaf etish, tugatish kerakligini bilgani uchun hermenevtikaning bir ilim sifatida tashkil qilinishi borasida katta hissa qo’shgan. Schleiermacher’ning bu hissasi bilan birga ortiq hermenevtika teologia, adabiyot yoki huquq ilmiga hos bir distsiplinaning masalasi sifatida qaralmaydi. Schleiermacher bilan birga hermenevtika bundan kelib chiqib bir til tarkibidagi biron bir voqeani onglash, tushunush san’ati bo’lgan (Palmer, 2008: 132). Schleiermacher’ning hermenevtika tog’risida “*Hermeneutik und Kritik*” nomida yagona bir asari mavjud. Shuning bilan bir qatorda talabalariga yozgan dars konspektlari “*Compendium*” ham bor. Schleiermacher bu asarlarida hermenevtikaning universal bir tushunish san’ati bo’lganligi haqida so’z etmoqdadir (Bilen, 2007: 71). Bilen’ning ifodasiga ko’ra Schleiermacher bu asarida ikki narsani birdan amalga oshirishga kirishmoqda. 1) Onglamoq va sharxlamoq sifatida hermenevtikani qiyoslagan holda uni faqatgina muqaddas kitoblarni sharxlamoq san’ati bo’lishidan ajratilmoqda. 2) Schleiermacher hermenevtikani, bir ilim sifatida yozilgan yoki so’zli ifodalarni onglamoq va sharxlamoqning elementlarini ortaga qo’ygan va bu

elementlarni amaliyotga oshirguvchi ilim o'laroq rivojlantirishga harakat qilgan. Schleiermacher'ning tushunchasiga ko'ra "gapirmoq, so'ylamoq tushunmoqning tashqi tomoni bolip hesoplanadi" bu bog'lamda esa germenevtika tushunabiluv san'atining bir qismidir. Bu mulaxazasi bilan birga Schleiermacher germenevtika ilmini falsafi soxaga olip chiqmoqda. Schleiermacher'ning metodikasi tilning, grammatikaning, jumla strukturasi, semantikasining tarixiy strukturalarini ochiqqa chiqaruv majburiyatida bo'lganligi uchun tarixiy bo'lib va germenevtika xar doim amalga oshirayotganimiz onglamoq masalasi jixatidan umumiy bir tasvirga ega bo'lmoqda. Schleiermacher aftor bilan oquvchi orasidagi zamon masofasini tugatishni hohlaydi. Buning uchun okuvchining aftor darajasiga yuksalishi kerakligi g'oyasini ilgari suradi. Bunu amalga oshirish uchun ikki meto'd ortaga tashlamoqda. 1) Grammatikalik meto'd. 2) Psixologiyalik metod. Birinchisi tilning grammatik strukturasi bilan aloqali bolib har bir asarning qo'llangan tili ilk o'laroq grammatik jihatdan tushunchaga kiritiladi. Shuning uchun bir asarni tushunish uchun avval uni grammatik strukturasi chechuv bilan tushunmoqlik asrasi onglash uchun harakat qilish kerak. Ikkinchisi esa aftorning xolati ruhiyasi bilan aloqali mavzudur. Agar aftorning yashagan chog'idagi manaviyati, hatto ana shu davirning manaviyatini o'rganish o'qinayotgan asarning ma'nosini tushunish uchun juda xam muxim bir metodika bo'lib hisoblangan (Bilen, 2007: 77, 79). Bir asarning yozuvchisi, b.q.a. aftori, yozgan asarining to'la to'kis sharxlovchisi emas, uning o'kuvchilari ustida xarqanday bir xokimiyati yo'q. Asosan o'quvchiga so'z xaqqi bermoqda.

Schleiermacher'ning asos solgan germenevtika ilmidagi meto'dologiyalik ishlardan xabardor bo'lgan Dilthey bu borada yangi izlanishlarni boshlatabildi. Bu sohada bir muncha asarlar yaratti. Bulardan bazilari quydagi asarlardir. "Inson Bilimlariga Kirish; Omma va Tarih Qidiruvlarining Asoslari" 1883 yilida "Inson Bilimlaridan Olamning Tarihini Aniqlash" 1900 yilida chop etilgan. Keyinchalik boshqa asarlari esa talabalari tomonidan chop qilindi va 22 to'mlik asar yuzaga chiqdi. Schleiermacher'nin germenevtika ilimidagi onglamoq, tushunuv masalasini tarixiy jarayon problemi shaklida qaradi. Dilthey bir Qant'chi bir fikir insoni edi. Faqat uni Yangi Qantchilardan ajratgan narsa, tabiat bilimlari va ruh bilimlari ayrimasini markazga olish bilan birga Qant'ning amalga oshirolmagan bilim metafizikasini, germenevtika tushunchasini markazga olib metodik ravishda ruh bilimlari shaklida ishlay chiqdi. Unga ko'ra tarix va omma, soxasi ampirik metodlar bilan amalga oshiriladi soha emas. Bu masala farq etish masalasi emas tushinish, onglash masalasidir. Dilthey'ning tin (ruh) bilimlari o'laroq asos solgan soha, insonga tegishli dunyoni onglashni maqsad olmoqda. Ma'no Dilthey'ning tushunchasida manaviy hayot jarayonidagi butun va qismlar orasidagi munosabatlar tarkibida joylashmoqdadir. Bedeutung (ma'no) Verstehen (onglamoq) so'zlari tushunmoq uchun harakat qilgan narsadir (Bilen, 2007: 86; Bolnow, 2003: 97). Demak, sarxlamog, sobitlashkan bir ifodaning ananaviy muhitda obyektiv bir ravishda tushinishi istagi bo'lsa kerak. Dilthey bu holatni shu shakilda bayon etadi:

*"(...) tushunabiluv, hayotning sobitlashgan ko'rinishlarining mavjudiyatiga yonalmog'lik es ava bizlar*

*bularga xar doim qayta olabilsak, yahsi yolda ishlatilip, kontrol qilnabilsa, bir obyektiv darajaga chikishlik va tog'ri bir metodga ega bolish mumkin. Uzuluksiz o'laroq sobitlashgan hayot ko'rinishlariga ochilish yoki sarxlamog nomini berurmiz... Bu sababladir kim, tushunabiluv san'ati, o'z markaz no'ktasini, insonning bor bolishining yozuvga otgan qoltilarining ochiqqlanishi vayo sarxlanishinda topadi"* (Dilthey, 1999: 88-89).

Dilthey'ning falsafiy tushunchasida insonning tushunushini mumkin qilgan narsa "yashamoq istagi va ifodalari" o'laroq o'z ifodasini topadi. Dilthey bu ifodalarni ishlab chiqayotgan chog'da bularni sinflarga ajratmoqdadir (Dilthey, 1986: 153). Bular, terimlar, xukumlar va tushuncha liboslari deb ataladi. Bilen bu sinflarni uch davrga ajratib qaramoqda. Bilen'ga ko'ra Dilthey avvalo psixologiya bilmni, gumanitar bilimlarni tuhsunib yetmoq uchun bir metod sifatida rivojlantirishni hohlagan. Bu davrlarda Dilthey ta'riflovchi psixalogiyani rivojlantirishla aloqali asarlar yozgan. Ikinci davrda bo'lsa "tarihni" hayot falsafasining asosi sifatida ko'ra boshlagani guvohi bolamiz. Shunday qilib tabiat butun sag'in, fanni bilimlarinin soxasi esa tarix ham inson bilimlarining soxasi qatorida qaralishi kerak. Uchunchi davrada esa germenevtikaga tayangan xolda gumanitar bilimlaridagi metodikalik problemani hal qilishni hohlagan. Dilthey'nin tushunchasiga ko'ra "hayot yoli davomida borilgan xar bir dam, mavjut payitni tashkil qiladi va tarkibi xaqiqat bilan toltirilgan zamon, bu o'timshning xotirasining tasiridan mustaqil bir ravishda bor bo'lolmaydi" (Tatar, 2016: 107). Shuning uchun xam Dilthey bir asarni o'qib sharxlagan o'quvchi bilan matnning orasidagi masofaning yol ochgan zamon farqining tarix usti bo'lishi bir qancha shubhalarni bartaraf qilish uchun yuqoridagi uch metodika vositasini amalga kiritgan.

Dilthey'ning gumanitar fanlardagi bu problemalarga metodikalik yondashuviga tasir korsatgan tushuncha J. S. Mill'ning 1843 yilida chop qilingan A System of Logic (Mantq Sistemasi) nomli asarining "Axloq Bilimlarining Mantig'ie sarlovxali to'rtinchi qismi bo'lgan (Bilen, 2007: 89). Dilthey asosiy problemani ong (aqliy) jarayon aloqalari bilan yagona formalik moddi aloqalarning bir birlariga qat'iy ravishda oxangli bo'lmaganligini isbotlash va mana shunday yo'l bilan zihniy (ong bilan aloqali) jarayonlarni, moddani bir xususi yoki bir yuzuga chegaralashni oldini olishta yotganligini tilga keltirgan. Bu borada Dilthey Mill'nin "Mantiq Sistemasi" asarida joy olgan butun (induktiv) metodikasiga murojat qilgan xolda ham bu meto'tni hamda gumanitar fanlardagi tajriba meto'diga murojat qilgan holda gumanitar fanlarining temasi yana insonning o'zi bo'lganligini aytadi. Dilthey'ning bu masala haqida ortaga chikargan ilk taspti tajriba so'zining gumanitar fanlarida farqli ma'nolarda tushunabilish kerak ekanligidir. Ikinci muammo esa, gumanitar fanlarida induktiv (butun) meto'dining (Dilthey, 1996: 231) qanday qilib uyg'ulanishi muommosidir (Bilen, 2007: 100). Dilthey masalaga bu shakilda qayrilmog'lik bilan birga zamonida bolmasa xam keyinchalik gumanitar fanlarida davom etip kelgan bir qancha problemalarni bartaraf qilinishiga katta hissa qo'shdi. Dilthey'dan so'ngra inson bilimlarida muammo bo'lgan kishilik va omma aloqasi, shahsning zixniy tushunchasiga xam tarixiy xam da ommaviy vokealarning ko'rsatgan tasirlarini to'g'ri sharxlash rivojlandi deb aytalimiz. Dilthey, harakat qilgan qidiruvlarida tarixiy aqlning chegaralarini ko'rsatmoq bilan

birga, inson (gumanitarniy) bilimlaridagi bilgining (ma'lumotlarning) imkoniyatini belgilashni o'ziga maqsad qilib oladi. Qant'da fenomenlarning bilgisining belgili bir kategoriyalari bor. Tabiat haqidagi bilgilarimiz (ma'lumotlarimiz) narsalarning tajribalarini tartipga solgan tushunchaning yoki yana ham to'g'risi, onglamoqning kategoriyalari soyasida qolga olinadi. Aynan sof aqlning kategoriyalari kabi, Dilthey ham shu kategoriyalarini qo'llanmoqlikni mumkin ekanligini aytdi. 1) Qisim va butun katego'riyasi, 2) sabab va maqsad, 3) kuch va quvvat, 4) ich va tashqi kategoriyasi 5) qadiriqiyat kategoriyasi. Dilthey, tarixiy bilginin imkoniyatini va chegaralarini qidirar ekan, falsafa, san'at, xuquq, va ekonomika bilimlaridagi metodika problemlarini chechuv uchun harakat qilgan. Bu esa inson bilimlarini faqatgina omma va kultür bilimlari deb hisoblash no'tog'ri. Chunki gumanitar fanlari yuqorida ataganimiz bir qator ilimlarni o'z ichiga olgan. Shuning uchun ham bu bilimlarning fenomen bilan uning aniqlangan bir tarihi orasidagi aloqasini korabildish lozim. Misol uchun, tarixiy shaxar Samarqandning yoki Bog'dotning, Oshning, bir top xalqlar uchun ham nafaqat faqatgina tarixiy ko'xna bir shaxar bo'lishidan tashqari, kulturalogiyalik, ana shu xalqlarning birgalikta insho qilgan tarihi aqlining ortiq tushuncha meroslari xam bo'lganligi unutmamoq kerak. Bu misollarni kopaytirip aytmoq mumkin. Mashhur Hristiyan olimi Sn. Agustinus'ning aytgani kabi, otgan tarix, hozirgi kunning garantiyasi bo'lgani kabi, xozirgi kun bo'lsa kelajakning garantiyasi bolip hisoblanadi. Dilthey'ning "hayot dunyosi" deb aytgan masala ham bu ma'noda gumanitar fanlarning temasi bolip hisoblanadi. Dilthey'ning (Erlebnis) o'laroq ifoda qilgan so'zi bu yerda o'zgacha axamiyat kozongan. Bu masalaning o'zi esa qisqa qilib aytganda bir individ (Shaxsning) yashagan tuprog'ida, kelib ketguvchi bir shaxis emas, bir shaxsiyatga, ongli bir ma'naviyatga ega bo'lgan insonning prototipidir. Bu Heidegger'ning (Dasein) deb aytgan dunyoda bor bolish uchun kurashgan bir kishining prototipidir. O'z tuprog'ini, kulturasini, o'rf odatlarini bilgan ongli kishidan xech bir vaqit zarar kelmasa kerak. Chunki o'z kulturasini bilgan kishi boshqa kulturalarga xam yahshi ko'z bilan qaray oladi. Buning aksi esa jaxolat, aqildan noqis shahislar bo'lsa ana shunda xar qanday, dini, sayosi va boshqa ekstremislarning ko'payishi turgan gap. Butun bularni oldini olmoqlik esa mana shunday bilimlarni kuchaytirish bilan birga amalga oshadi deb oylayman.

## 6. Falsafiy Germenevtikaning Asoschilari, Husserl, Heidegger, Gadamer

Germenevtika ilmining rivojlanishida Dilthey, anglamoq, tushunmoq masalalarini yechish uchun germenevtikani inson bilimlarida bir meto'd sifatida qo'llandi faqat onglamoq tajribasining bir butunligi haqidagi problemani bartaraf etolmadi. Bu masalaga birinchi bo'lib Husserl (1859-1938) to'xtalgan edi. U insonning zixnida jarayot etgan bir bosqich bo'lgan, savol so'roqsiz qabul qilingan "fenomennig inson zixniga bergan tasirning" obektif ekanligini qidirdi va onglamoq kabi asosiy ong faoliyatining sharxlaguvchi strukturaga ega ekanligini isbot qilishga harakat qildi (Bilen, 2007: 115). Bu yerda Husserl uchun asosiy masala Qant'ta bo'lgani kabi numenler emas fenomenlardir. Husserl'ga ko'ra dunya va inson boshqa boshqa ma'noga ega emas. Husserl fenomenologiyaga diqqat

jalp qilish bilan birga bizlarning dunyoga qarata bo'lgan tushunchalarimizi o'zgartmoq uchun, subekt va obyekt masalasiga toxtalmoqda. Chunki bu dunyo biz insonlar uchun bir obyekt bolip, onglamoq va faoliyat korsatmoq uchun bir ufuz soxasidir. Inson bu dunyoda yashayotib, bu dunyoga qarata bo'lgan tajribalarini vositasiz bir ravishda tushunabilish quvvatini ham bu dunyodan olmoqdadir. Anashu tajribalar insonga ontologiyalik fikirlash imkoniyatini taminlamoqda. Husserl mana shu jihatdan ajralgan ki, u insoni dunyoning ontologiyasini belgilash uchun harakat qilgan (Hossein: 03.08.2017). Faqat Husserl'ning qayg'usu bilish fiillarining barchasini o'z ichiga olgan ufuz biron bir subyekt tomonidan tushunilishi mumkinmi? Bu savolga javobni Husserl "transandantal xususiyatta" izlamoqda. Lekin o'zining idealizm soxasiga yonalganini farqiga boradi.

Heidegger (1889-1976), xam Husserl kabi "bor bo'lish (ekzistans)" so'zining fenomenologiyalik imkoniyatidan harakat qilmoqda. Bu so'z asosan Aristotel mantig'ida narsalar haqida bilgi edinmog'likni mumkin qilgan kategoriyalar soxasidir. Shuning uchun xam Heidegger bor bolish o'zini qanday ifoda qilganligini aqtaruv masalasiga aylantiradi. Bu esa uning harakat nuqtai nazarini epistemologiyalik emas ontologiyalik ekanligini korsatmoqda. "Borlig' va Zamon" nomli asarida Heidegger, Dilthey'ning "Yashamoq" so'zi o'rniga "bor bolish" so'zini qo'llanadi. Heidegger'ga ko'ra bor bolish teorik aql yoli bilan tushunilishi mumkin bo'lgan narsa bol'lib hisoblanmaydi. Inson o'z bor bolishining eng tamal harakatidir. U tushunmog'liqni Dilthey'da bo'lgani kabi bir metod o'laroq ko'rmaydi, unga ko'ra germetetik, insonning bor bo'lish uslubi, tashqi dunyoga ochilish shakli o'laroq tariflaydi. Heidegger'ga ko'ra inson, olamni emas, o'z tarihi ichida o'zini borlig'ining farqiga bormoqda. Shunday ekan, germetevtika Heidegger uchun bor bolishning o'zini onglamoqdir. Buning uchun inson o'zini chambarchas o'rab turgan xar bir narsani onglash qudratiga egadir, jumladan eng oldindan o'zini (Özlem 2001: 247).

Heidegger'ning falsafiy qidirishlarining eng tamalini "bor bolish" ekzistensializm, masalasi tashkil qilgan. U xam Husserlning fenomenologiyalik germetevtikasidan xam da Dilthey'ning onglamog'lik germetevtikasidan tasirlanish bilan birga "ontologiyalik germetevtika" nomi berilgan bir germetevtika tushunchasini ilgari surgan. Uning "Borlig' va Zamon" nomli asarida ortaga qoygan "Dasein" tushunchasi metafizik tomonidan tashkil qilgan bir to'p nazariyasi bilan birga inson bilimlarida xam germetevtik ko'z qarash borasida butkul yangi bir oydinlatguvchi bolib kor'ina boshlaydi. Heidegger bilan birga onglamoq so'zi ontologiyalik bir statusga ega boldi. Bilen'ga ko'ra onglamog'likni bor bolish tamonidan uch on'g tarkibi bordir: o'ng ega bolish, oldini korabiluv va o'ng-onglamoq. O'ng onglamoq bu inson bor bo'lishing ontologiyalik strukturasi tashkil qiladi. Bor bo'lish onglamoqtir (Gadamer 1995: 19). Heidegger, tarixiy bilgi problemasiga chuqur izlanilishi kerakligini esga keltirmoqda va bu borada Dilthey bilan hamfikir bo'lib, o'z tushunchasini ifoda qilmoqda. Unga ko'ra tarixiylik, tarixning imkoniyatiga ishorat etadi. Bundan kelib chiqib, Tarix bilimi, insonning zamon ichida bir borlig' o'laroq ontologiyalik struk-turasiga tayanadi va bu struktura, insonning urf-odatlarini tushunup qarashiga imkon beradi (Bilen, 2007: 137).

Hans-Georg Gadamer (1900-1990), hermenevtika sohasidagi yurutgan fikirlari yuz yillik falsafa nazariyalarida buyuk muloxazalarga sabab bo'lip diqqatga sozovor tasirlar qoldirgan. U hermenevtika ilmini ontologiyalik bir zaminga joylashtiradi. Heidegger bilan hamfikir bo'lgan Gadamer "*Haqiqat va Metodika*" (1960) nomli asarida hermenevtikaning xususi va umumiy tomonlariga etiborini jalb qildi. (Özlem, 1998: 117). Heidegger'ning fikirlari ustiga insho qilingan bu asarida Gadamer Dilthey'dan farqli o'laroq hermenevtik fikirlashini falsafaning toq ortasiga joylashtiradi. Gadamer'ga ko'ra hermenevtik tushuncha dunyodaki bor bolishimizning tamal bir shartidir (Bernstein 1985: 34). Hekman'ga ko'ra Gadamer'ning inson bilimlarning tabiyati tog'risidagi savolga "*Xaqiqat va Metodika*" nomli asarida, butun tushunabiluvlarning lingivistik bo'lgani va inson bilimlarida tushunabiluv ishlari til vositasi bilan qaralishi kerakligini ifoda qiladi. Chunki til butun masalalarni tushunabilish uchun en kerakli bo'lgan binodir (Hekman, 1999: 129).

Gadamer insoniy hayot tajribalarimizda tilning o'rnini umumiyiligi takidlab o'tadi va hermenevtikaning tilning qoidalari zaminiga asoslantirilish kerakligini aytib otgan. Til chunki xozirgi kunda bizlar uchun uzoqlashib borgan urf-odatlarini yozilgan kultura bilan sharxlamoq dolzarb ekanligini ko'rsatmoqda. Sharxlamoq kunimizda o'rf-odatlarini kunumiz tiliga tarjuma qilish bolip xesoplanadi. Hermenevtikaning asosiy vazifasi bo'lib bu vazifasini asosan bu tarjimalarni bugunning otgan kun bilan bo'lgan aloqasini umumiy darajaga yuksaltmoqdir deb hisoblaydi Gadamer (Özlem, 1998: 119). Gadamer, tamal insoni tajriba xolati o'laroq onglamoq haqida taxlillarning falsafi ekanligini va bular uchun belgili bir metodika taqdim etmaganligini aytadi. Faqat, matn sharxlamoqla aloqali uning praktikasiga tegishli falsafi hermenevtika bilan cheklanmagan, onglamoqning tarixiyiligi iddiosini uch farqli tomondan ishlab chiqadi: a) Tajribaning tarixiyiligi, b) tajribua etilgan narsaning tarixiyiligi, c) bilinchning tarixiyiligi. Gadamer bu uch turli onglamoqlik ko'z karashining xammasiga, birdan falsafi hermenevtika deb atamoqda (Bilen, 2007: 141). Gadamerning falsafiy hermenevtikasining muxim so'z "*nishablik; qiyshiq tusshunuv*" bo'lgan. Hermenevtika ilmi problemalarni to'g'ri tushunabiluv borasida insonga avvalam bor nishablikdan qurtulabiluvning metodikalarini orgatadi. Yuqoridagi onglamoq metodikalari insonga bu nishablikdan o'zini saqlaybilish masalasida eng muxim bosqichlar bolib hisoblanishi mumkin. Fikirimcha Gadamer bu masalalarni ko'tarib chiqish bilan birga tarixning azizlanishi va tarixiy merosning sharxlamoq yoli bilan muxofaza qilinishi kerakligiga diqqatlarni jalp qilmoqda va bu borada eng muxim ish hermenevtika zimmasiga tushganligini takidlamoda.

## 7. Yangi Romantilchilar Betti, Hirsch va Matn Sharxlov Metodikasi O'laroq Hermenevtika

Emilio Betti (1890-1968) bir xuquq tarixchisi bo'lgan va adabiyot terminologiyasining asoschilaridan bo'lgan E. D. Hirsch (1928-) ekzistensializm va falsafiy hermenevtikaga qarshi matn sharxlov metodikasi o'laroq yangi romantik hermenevtikani korishgan bolib ular jiddiy ravishda falsafiy hermenevtikaga etirozlar va kritikalar ortaga qoyishdi. Ikkalasi ham chikish nazariyasida Seleiermacher va

Dilthey'ning asos solgan hermenevtik ko'z qarashlarga tayanadilar. Betti, hermenevtikani, xozirgi kunda mavjud problemalarni chechabiluv uchun bir metod sifatida hermenevtikani rivojlan-tirishni xoxlar ekan, Hirsch esa buni adabiyot terminologiyasiga uyg'ulamoqqa kirishgan. Aslida olip qaraganda har ikki filo'so'fning metodikasi falsafiy yoki ekzistensialistik hermenevtika metodikasidan eskidir.

Betti'ning, ekzistensialistik hermenevtikasiga qarata yo'naltgan etirozlarining tamalida "*sarxlamog'likning obyektivligi*" masalasi yotmoqdadir. Fenomonologiyalik ko'z qarashda bo'lgan "*ma'noli formalar*" muloxazalaridagi terminologiyani Betti o'z masalasining markazi xolatiga aylantirip oladi. Betti'ning tushunchasida endi esa "*ma'noli formalar*" sarxlamog'likning en asosi tamalidir. Chunki sarxlamog, ma'noli formlarning boshqa bir zixin (aql) tomonidan ishlanishi, yangittan insho qilinish jarayonidir. Bu ma'noda hermenevtika esa "*ma'noli formlarni*" sarxlamog suratiyla, bu formlarning tashiyotgan ma'noni onglamoqtir. Qisqa qilip aytganda hermenevtikaning temasi onglamoq, metodikasi bo'lsa sarxlamogdir. Bu jihatdan sarxlamog'likning temasi juda keng bolib, adabiy bir tilla yozilgan asarlardan chiroyli memoriy bilan qurulan go'zal binoning ko'rinishi bularning xammasi sharxlamog'likka muxtojdir. Chunki faqatgina bu yo'l bilan tushunchamizga bizlar ma'nolarning aqtarilishini saqlay olamiz. Shuning uchun ham "*ma'noli formalar*" muxim bir masaladir kim, xar bir asar o'z ma'no formasiga ega. Betti Qant kabi narsalarning onglash jixatimizga ko'ra belgilanganligini qabul qilish bilan birga, xaqiqatning belgilanishini mumkin qilgan kategoriyalarning bir tomondan psixologizm boshqa taraftan esa sensatsializm tomonidan, axloqiy qadriyatlarining subjektivligini va kelib kechguvchiligini ximoya qilgan "*ekzistensialistlar*" tomonidan tahdid etilgan. Betti'ga ko'ra esa axloqiy va estetikalik qadriyatlar "*ideal obyektivlikka ega bolip bular istisnosiz o'zlariga xos qonuniy darajalarga tobii*" (Bilen, 2007: 177) Inson bu ideal obyektivligi "*onglamoq formlari*" vositasida o'z tushunchasiga kiritip bir top masalalarni oydinlatabilishi mumkin. Betti bu fikir muloxazalari vositasida hermenevtikaning tayangan epistemologiyalik fundamentni oydinlatmoqlik bilan birga, onglamoqlik jarayonini va tushina olishning obyektini belgilamoqda. Betti uchun til, ifoda qilish va zixiniy obyektivatsiyasining imkoniyatlarini tashkil etadi. Individlarning (shaxislarning) ifodalari esa bu imkoniyatlarni amalga oshirabilishlariga ko'ra o'zgaradi. Bunu tipqi arilarning uy qurush jarayoniga oqshatishimiz mumkin deb xesoplayman. Chunki bilinchli shaxislar o'z jamiyatini kerakli materyallar bilan taminlay olmasa bu jarayon ishlamasligi turgan gap. Faqat bu donishmand shaxis bu onglamoq formlarining farqida bolib o'z materyalini yoki o'z toshini ana shu quruloyatgan uyning qaysil joyiga joylashtirishning bilinchida bo'lsa ana oshandagina bu jarayon to'g'ri amalga oshadi. Bu jihatdan Betti'ning asos solgan ko'z qarashlar juda muxim deb hisoblayman.

E.D. Hirsch (1928) adabiyot terminologiyasi soxasida ijod qilgan mutafakkir o'laroq romantik yaxut metodik hermenevtikaning mudofa qilganlarning eng boshlang'ich shahislardan bo'lib hisoblanadi. Gadamer'ning "*Haqiqat va Metodika*" nomli asarining Anglizchaga tarjuma qilinishi ustiga yozgan kritikadasida Hirsch, falsafi hermenevtikaning skeptisizm va nixilizm orasida ketip kelganligini ilgari suradi.

Chunki falsafi hermenevtika tushunabiluvning tarixiyligini markazi noqtai nazarga olmoqda. Betti'ning o'rtaga qo'ygan kritikallarni asos olib, buning bilan birga Hirsch, orf odatlarga, tarixiy tasirlanishga va ufuq qaynashuviga murojat qilgan xolda Gadamer'ning sarxlamoqlik borasida ortaga qoygan iddiolarining *"tarixiylikni vayronalaridan qutqaraolmasligini"* (Hirsch, 1965: 254) himoya qilib buni o'z kritikasinig asosi mavzusi qilib oladi. Hirsch onglamoqning tarixiyli va cheklangan bo'lishi borasidagi konsepsiyaning, mutloq ravishda bilginig imkoniyati tushunchasi ila mudofa qilinganligini tilga keltiruv bilan birga buning metodik hermenevtika uchun bazi qiyinchiliklarni tug'durganligini bayon etadi. Hirsch *"Uzoq bir o'tmish bilan hozirgi orasidagi zamon oralig'i bilan xoli hozirda yuzaga kelgan iki kishi orasidagi bir aloqadagi zamon oralig'i farqli bo'lishi mumkin mi?"* deb soraydi. Manashulardan kelib chiqib, Hirsch'ga ko'ra ontologiyalik zamon konsepsiyasiga tayangan xolda ilgari surulgan tarixiylik konsepsiyasi bilan Gadamer, subyekt bilan obyekt yoki iki subyekt orasidagi xoli hozirdagi zamon oralig'ini ozgarganligini ilgari surmoqdadir ki bu tog'ri bir iddio emas.

Hirsch o'zining kelishtirgan romantik hermenevtikasi borasidagi tushunchasida *"dastlabki tushunush"*, *"o'zgargan ufuq"*, *"diyagramma"* konsepsiyalarini rivojlantirish bilan birga Gadamer'ning tarixiy onglama konsepsiyasining bergan tushunchadan yana xam quvvatli psikolinguistik izohlarni ortaga qo'yadi. Bu izohotlarga qaraganda Hirsch'ning tushunchasida og'zaki ma'no belgisi bolip, u aslo o'zgarmaydi (Hirsch, 1967: 46). Bu holatda esa o'kuvchi matnning ochiqcha beligilayotgan ma'noni onglamoq uchun harakat qilishi lozim. Hirsch o'qurlik jarayonida individual o'qurning oldindan ko'rabilish yo ki shupxasi uchun ochiq joy qoymaydi. U yana xam ko'proq *"sezguvchilik"*, *"pozitivizm"* va *"perspektivizm"*, borasidan qarash bilan birga Heidegger'ning hermenevtikasiga qarshi og'zaki ma'noning obyektiv yetkunligini mudofa qilmoqdadir (Ulukütük, 2009: 177) Hirsch'ga ko'ra bir yozuvchining niyyatining xusisi ma'nosining aslo o'zgarmaydi. O'zgargan narsa bu matnning *"siginifcance"* ahamiyatidir, ma'nosi emas.

## 8. Tanqidchi Hermenevtikaning Asoschilari Habermas va Apel

Jürgen Habermas (1929) hermenevtika bilan aloqali diskursiyalarga Gadamer'ning *"Xaqiqat va Meto'dika"* nomli asari ustida yozgan tanqidiy *"hermeneutik und Ideologie kritik"* asari sabab bolgan (Topakkaya, 2017). Bu asarida Habermas falsafiy yoki ekzistiyansilaist hermenevtikaning dogmatik va konservativ bo'lganliklari uchun tanqid qildi. Habermas'ning falsafiy hermenevtikaga yo'naltgan etirozlari shu to'rt no'ktada toplash mumkin (Bilen, 2007: 213). A) Urf odat va aqliylik orasidagi aloqa; b) Hokimiyat va nishablik qarshisida tanqidchi ravishda turabiluv; c) ijtimoi bilimlardagi metodika problemi; d) hermenevtika tajribasining universalligi. Habermas bu tort problema ustida o'z fikirlarini taranglashtirip tanqidchi hermenevtika terminologiyasini tarafsiz va nishablikdan mustaqil ravishda bir aloqa vaziyatiga chikabilish uchun, urf odatning hokimiyati qurtulabiluv uchun obyektiv bir metodika bilan tushunabiluvning kerakligini aniqladi. Habermas'ga ko'ra falsafi hermenevtika, hokimiyat va urf odatga, obyektiv hermenevtika da faqatgina tilga tegishli va

matnsal munosabatlarning to'g'riligini mudofa qilgan xolda qolganicha bu ishning amalga osholmasligini bildirdi. Habermas'ning asosiy qayg'usini ham Gadamer'ning yo'l qo'ygan bu xatoga tushmasdan, asosiy problemaning onglamoq bilan aloqali problemaning urf odat bilan aloqali kalta faximlikka tayonganligini ilgari surgan ko'z qarashlarning asosda bu kalta faximliklarni qonuniylashtirmoqdami yoki yo'q mi masalasi tashkil qilgan. Habermas bu borada hermenevtikaning asosiy vazifasining insonda onglaybiluv bilinchlarini tashkil qiladigon metodikalar ishlap chiqish kerakligini bildirish bilan birga sarxlamoq doirasining pragmatik bir uyg'ulamasining bor bo'lganligini bildirdi. Habermas bu doira aslida hermenevtika doirasi bolip ijtimoi bilimlarda yangi zaminlar tashkil qilish quvvatiga egadir. Bu doiraning tashkil qilgan zamin butun bilimlarga o'z tasirini ko'rsatabilishi kerak. Buning uchun ham Habermas hermenevtik teoriyasining epistemologiyalik tarafi bilan shug'ullangan. Chunki Habermas bu tanqidchi metodikaning butun bilimlarda ijod qilgan mutafakkirlarning yoki oddiy o'quvchining ham bu borada kalta faximlikka tushmasligi uchun muxim xizmati bor ekanligini isbotlay bildi.

Karl Otto Apel'ga (1922-2017) ko'ra ham, ijtimoi bilimlarning kelib chikishi jamiyatlarining munosabatlarning tarixiy tajrubalarini mumkin qilgan ma'no ufuqindadir (Apel, 1980: 114). Subyektlar orasida qollanilgan til bilimning bir sharti bolib hisoblanadi. Chunki, so'ng tahlilda subyektlar orasidagi pragmatik aloqaning imkoniyatining ham bu jarayonga bog'liq ekanligi ochiq o'rtada va bu hermenevtika bilimining xam kelib chikishi bu yerdir deb aytadi Apel (Bilen, 2007: 221; Apel, 1967: 15). Apel'da *"ichkin tajrubaning avval bolishi"* mavzusidagi taxlili, tushunmoqni va izoh qilishni ajratilishiga tayanadi. Apel'ga ko'ra Gadamer'nin hermenevtik teoariyasi Heidegger'ning ekzistiyansilaist ko'z qarashiga bir alternativ tarixsal ko'z qarastir. Bundan tashqari Apel'ga ko'ra, falsafiy hermenevtika, Qant'chi ma'noda bolishi kerak bolgan yoki qadr qiymat va hukm problemasini diqqatga olmaydi. Shuning uchun onglama jarayonida yetkunlik darajasida yetarsiz qolmoqdadir. Bu sababla *"butunluk avvaldan tushunabilish"* sarxlamoqlikdan chiqarilgan dogmatik bir daraja o'laroq korsatilip va buni qayta tiklashga harakat qilinmoqda (Bilen, 2007: 223). Habermas'tan farqli bir ravishda Apel onglamaning tarixiyli disertatsiyasining *"ichinda bu shartlarni mavjud qilgan universal tarixga boshvurmoq kerakligini"* iddao qilmas. Apel, Qant va Pierce'ning izidan harakat qilip, ozod bir ravishda sarxlovchi camiyatning yo'naltguvchi fikrining saqlanuvsi kerakligini tavsiya qiladi. Chunki unga ko'ra bunday jamiyat o'zaro kelmishmovchiklarda kelishib olguvchi va xaqqoniyatli bolishini tamin qiladi. Apel, bu tushunchada bo'lgan xar bir insonning ozod fikirlashga ega bola olishini takidlaydi. Tanqidchi hermenevtikaning ilgari surgan metodika, insoniyatning o'zini tushunishi bilan birga bu falsafa tarixining aloqasiga ham uyg'ulanishi mumkin. Bu esa urf odatlarning tarixiy hermenevtik jihattan onglashuvini va ijtimoi bilim tomonidan izohlarning diyalektikasining imkoniyatini beradi. Apel bu izohlarning nixoiy xadafining *"idealogiya tanqidi"* ekanligini ifoda qilmoqda. Apel, ilmiy jihattan hermenevtikani, boshqacha qilip aytganda *"ochiqqlagan"* tabiyat bilimlari bilan *"onglagan"* tin bilimlari orasidagi zidlikni ochiqqlamoqda va tamallandirmoqda. Apel bu fikirlari bilan ayni zamonda

pozitivizm oqimining “yak-bilim” tushunchasini tanqid qilmoqdadir. Germenevtika bilan tabiyat bilimlarining temasi, aniqrog’i voqealarning sonining hayotga aqtarilishi va onglashilmovsi bir birlarini tashqarida tutgan, faqat ayni zamonda bir birlarini tamomlagan narsalar deb hisoblaydi (Topakkaya, 2017).

## 9. Natija

Bu maqoladan shuni xulosa qilib aytish mumkin kim “germenevtika” ilmining tomirlari to Antik Grek dunyosidagi mifologiyalik Germes’ga qadar borib taqaladi. Mifalogiyalik buloqlardan songra esa Aristoteles va yana boshqa buloqlarda bu ilimga xos xam epistemalogiyalik hamda mantiq tomirlarini ko’ra bilishimiz mumkin. So’ngra esa taniqli mutafakkir Al-Farobiyning risolalarida xam bazi buloqlarni uchratish mumkin. Shuni aytib otish kerakki Islom olamida xam germenevtika ilmiga xos buloqlar bor, faqat bu buloqlar kunimizda taxqiq va tanqid etilmaganligi sababli bu borada yana ko’p ishlar qilinish kerak ekanligini bizlarga malum. Topakkaya’ning takidlagani kabi germenevtika ilmi Antik Greklardan beri kunumizga qadar tarixiy jarayonga ega bolgan bir ilim emas. Germenevtika Schleiermacher va Dilthey’nin ijodlari soyasida tin bilimlarining sarxlamoq va onglamoq metodologiyasiga aylangan (Topakkaya, 2017). Matn ichida aytib o’tilgani kabi G’arb bu borada M. Luther’ning boshlatgan qidiruvlari bilan birga Ronesans va oydinlik davirlarida ko’p ishlar amalga oshirabildi. Bu esa ularni 20- asrda “germenevtika” ilmining sistematik bir ravishda qurulishi va yangi metodikalarni ishlab chikishiga olip keldi. Bu borada Schleiermacher, Dilthey, Heidegger, Gadamer, Husserl, Ahbermas, Apel, Betti va Hirsch kabi mutafakkirlarning germenevtika ilmiga qo’shgan xissalari malum darajada. Bu mutafakkirlar xar biri o’z soxasida germenevtika ilmiga xissalarini qo’shayotip, soxalarida eng kerakli bo’lgan metodikalarni ishlashga harakat qilishdi. Schleiermacher va Dilthey romantik germenevtik ko’z qarashida tushunchalarini bildirish bilan birga germenevtika ilmining sistematik xolda inshosining bosh qaxramonlari bo’lgan. Schleiermacher va Dilthey kabi Husserl, Heidegger va Gadamar xam germenevtikaning butun ilimlarda ishlatilabilishning imkoniyatini qo’lga olgan. Ular ham germenevtikaning universal bir ilim qatorida tanitip kuchli metodikalar ustida ish olip borgan. Xususan Betti va Hirsch’ning yangi romantik germenevtika soxasidagi kiritgan “*ma’noli formalar*” metodikasi borasidagi yangiliklari Karl Otto Apel’ning fikir dunyosida katta o’zgarishlarga olip chiqqan. Xulosa qilib aytganda germenevtika ilmi insoniyatning hayotida muxim ro’lga ega. Germenevtika soxasida aql yurg’uzgan Heideggerning fikricha inson o’zining dunyoda bor ekanligini tariflayotgan vaqitning o’zida ayni zamonda tarixini xam vujutga keltirmoqda.

## Manbalar (References)

- Bernsteini, R. J. (1985). *Beyond Objectivism and Relativism: Science, Hermeneutics and Praxis*. University of Pennsylvania Press.
- Bilen, O. (2007). *Çağdaş Yorum Bilim Kuramları*. İstanbul. Şule Yayınları.
- Bollnow, F. O. (2003). *İfade ve Anlama, Hermeneutik Üzerine Yazılar*. (çev. & Ed. Doğan Özlem). (93-136 ). İstanbul: İnkılap Kitabevi.
- Dilthey, W. (1962). *Pattern and Meaning in History*. (çev. H.P. Rickman). Hanper Torchbooks.
- Dilthey, W. (1986). The Hermeneutics of The Human Sciences. In: *The Hermeneutics Reader: Texts of the German Tradition from the Enlightenment to the Present*, (Ed.) Kurt Mueller-Vollmer, (148-164). New York: B. Blackwell.
- Dilthey, W. (1996). *Hermeneutics and Study of History*. (çev. Rudolf A. Makkreel-Frithjof Rodi). Princeton University Press.
- Dilthey, W. (1999) *Hermeneutik ve Tin Bilimleri*. (çev. D. Özlem). İstanbul: Paradigma Yayınları,
- Gadamer, H. G. (1981). *Hermeneutik, Historisches Wörterbuch der Philosophie*. (der. Berlin J. Ritter). Volumen 4
- Gadamer, H. G. (1995). *Hermeneutik*. (Çev. D. Özlem), *Hermeneutik (Yorumbilgisi) Üzerine Yazılar içinde*. Ark Yayınları.
- Hekman, S. (1999). *Bilgi Sosyolojisi ve Hermeneutik*. (çev. H. Aralan-B. Balkiz). Paradigma Yayınları.
- Hirsch, E. D. (1965). *Validity in Interpretation*. New Haven and Londra: Yale University Press.
- Özlem, D. (2004). *Tarih Felsefesi*. İstanbul: İnkılap Kitabevi.
- Özlem, D. (1994). *Metinlerle Hermeneutik (Yorumbilgisi) Dersleri*. I. Cilt. Prospero Yayınları.
- Özlem, D. (1995). *Hermeneutik Üzerine Yazılar*. Ark Yayınevi.
- Özlem, D. (2001). Söyleşi: Yaşam Öyküsünden Fikirlerine Doğan Özlem. *Marjinal Dergisi*, 7, 12-14.
- Öztürk, E. (2009). Hermeneutiğin Tarihsel Dönüşümü. *Zeitschrift für die Welt der Türken/Journal of World of Turks*, 1(2), 145-175.
- Palmer, R. (2008). *Hermenötik*. (cev. İbrahim Görener). İstanbul: Ağaç Felsefe.
- Tatar, B. (2004). *Hermeneutik*. İstanbul: İnsan Yay.
- Topakkaya, A. (2017). Felsefi Hermeneutik. *Felsefe ve Sosyal Bilimler Dergisi*, 4, 75-92.
- Toprak, M. (2003). *Hermeneutik ve Edebiyat*. İstanbul: Bulut Yay.
- Ulukütük, M. (2009). Hakikate Giden Yollar: Metin-Yazar-Okur Diyalektiğinde Beliren Anlama Sorunu. *Felsefe Bilim Araştırmalar Dergisi*, 15, 173-192.
- Zamanalou, H. (2017) *Husserl ve Heidegger'in Hermeneutik-Fenomonolojik Düşünümünde Kriz üzerine bir İnceleme*. (Erişim: 3.8.2017), [http://www.academia.edu/11182443/Husserl\\_ve\\_Heideggerin\\_Hermeneutik-Fenomonolojik\\_Kriz\\_Üzerine\\_bir\\_İnceleme](http://www.academia.edu/11182443/Husserl_ve_Heideggerin_Hermeneutik-Fenomonolojik_Kriz_Üzerine_bir_İnceleme)